

## Namoz - dinning ustuni



14:02 / 08.11.2018 8622

### **Ey, farzand!**

Bomdodni o'qigach, masjidan chap oyoq bilan chiqiladi va shunday duo qilinadi:

«Allohim! Menga fazlu karaming bilan rahmat eshiklarini och!»

O'ng oyoq tashqariga olinayotganda shunday niyat qilinadi:

«Allohim! Peshin namozini o'qishimni menga nasib ayla!»

Peshinni o'qib asrga, asrni o'qib shomga, shomni o'qib xuftonga, xuftonni o'qib bomdodga niyat etgan kishining daftariga kecha-kunduz namoz o'qigan savobi yoziladi.

Bir hadisi shariflarida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar:

**«Amallar niyatlarga koʻradir. Kim nimani niyat qilsa, oʻshaning natijasini koʻradi».**

Niyatsiz amal boʻlmaydi, yaʼni niyatsiz amal amal emas. Niyati qilinib, yaxshi, tugal, oʻrinli qilinmagan amal ham daftarda amal qilinmagan deb yoziladi.

Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar:

**«Namoz - dinning ustunidir. Namozni mukammal oʻqigan dinini mukammal qiladi. Namozni buzgan dinni buzadi. Namoz - barcha ibodatlardan afzaldir. Namozni jamoat bilan oʻqimoq, yolgʻiz oʻqigandan yigirma besh, yigirma yetti daraja afzaldir».**

Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar: **«Jamoat bilan namoz oʻqishni uzrsiz tark etib, uyida yolgʻiz oʻqigan kishi faqat qarzini oʻtaydi. Yigirma yetti darajali jamoat savobidan mahrum boʻladi».**

Namozlarni kechiktirmasdan vaqtida oʻqish kerak. Vaqtning oʻrtasida oʻqishning ham zarari yoʻq. Faqat hech qanday zaruratsiz kechiktirish toʻgʻri emas. Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Meʼroj kechasi jahannam menga koʻrsatilganda koʻrdimki, bir guruh kishilarni zaboniylar gurzi bilan boshlariga urib, ularning miyalarini parchalashmoqda. «Bu shaklda jazolanayotganlar kimlar?» deya Jabroil alayhissalomdan soʻradim. U zot bu kishilar zaruratsiz namozni kechiktirganlar ekanini aytdilar». Har namozni kirgan vaqtida yoki oʻrta vaqtida oʻqish kerak. Namozni uzrsiz kechiktirishdan saqlanish lozim. Namozni vaqtida oʻqimagan kishi savobdan mahrum boʻladi. Namozni baʼzan oʻqib, baʼzan oʻqimagan kishining ham ahvoli qoʻrqinchli. Chunki bu odam namozni jiddiy qabul qilmagan sanaladi.

***“Ey, farzand!” kitobidan***